



GLOBAL IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Sherkulov Abdunabi
Abduvali o'g'li

TDIU mustaqil tadqiqotchisi.
G-mail: abdunabisherkulov51@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada koronavirus pandemiyasidan keyin jahon investitsiya muhitida yuzaga kelgan asosiy tendensiyalar hamda ushbu inqirozli vaziyatdan chiqib ketish jarayonida rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan choralar tahlil qilinadi. Shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish maqsadida olib borilgan islohotlar natijasida statistik ko'rsatkichlarda kuzatilgan o'zgarishlar dinamikasi yoritib beriladi. Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini yanada oshirishga qaratilgan ustuvor chora-tadbirlar va takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: kapital, xorijiy investitsiyalar, xususiy kapital, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, donor mamlakat, qabul qiluvchi mamlakat.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INVESTMENT ACTIVITY IN THE GLOBAL ECONOMY

Annotation: The article analyzes the main trends in the global investment environment after the coronavirus pandemic and the measures being taken by developed, developing and transition economies in the process of overcoming this crisis. It also highlights the dynamics of changes in statistical indicators as a result of reforms carried out in our country in recent years to expand the flow of foreign direct investment. In addition, priority measures and proposals are presented to further increase the volume of foreign direct investment..

Key words: capital, foreign investment, private capital, foreign direct investment, donor country, recipient country.

Kirish.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning huquqiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish hamda investitsiya muhitini yanada takomillashtirish iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faolligini oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonlarida

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Mazkur investitsiyalar ilg'or xorijiy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular asosan bozor infratuzilmasining etarli darajada rivojlanmaganligi, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda investorlar ishtirokini samarali tashkil etish mexanizmlarining takomillashmaganligi, shuningdek, tadbirkorlarning investitsiya loyihalari bilan ishlash bo'yicha tajribasi va huquqiy bilimlarining etarli emasligi bilan bog'liq.

Shuningdek, investitsiyalarning o'z vaqtida va samarali o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida yangi nazorat mexanizmlari joriy etildi. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar alohida guruhlariga ajratilib, ularning ijrosi bosqichma-bosqich monitoring qilina boshlandi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi milliy iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun iqtisodiy va huquqiy muhitni sezilarli darajada yaxshiladi. Natijada, mamlakatimizda shakllanayotgan qulay investitsiya muhiti xorijiy investitsiyalar oqimining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiyot fanlari nomzodi Q. Xoshimov o'z ilmiy tadqiqotlarida chet el investitsiyalarini chet ellik mulkdorlar tomonidan muayyan kapitalni bir mamlakat iqtisodiyotidan boshqa mamlakat iqtisodiyotining qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan turli tarmoqlariga aniq va noaniq risklarni hisobga olgan holda, o'z manfaatlariga erishish hamda nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo'lish maqsadida ma'lum muddatga yo'naltiriladigan barcha mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar majmui sifatida talqin etadi [1].

Rus olimi Kadochnikovning ilmiy ishlari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni investor tomonidan import qiluvchi mamlakat kompaniyasining xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni ta'minlovchi, ya'ni recipient kompaniya boshqaruvi yoki uning asosiy aktivlari ustidan bevosita nazoratni nazarda tutuvchi investitsiya turi sifatida ta'riflaydi [2].

Ekletik paradigma asoschisi J. Dunning o'z tadqiqotlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning amalga oshirilishini recipient mamlakatda ishlab chiqarishning qulay geografik joylashuvi, ishlab chiqarish omillari qiymatining nisbatan pastligi hamda savdo to'siqlarini chetlab o'tish orqali mahalliy bozor ulushini egallash istagi bilan izohlaydi. Uning fikriga ko'ra, mazkur omillar xorijiy investorlarni kapitalni bevosita joylashtirishga undovchi asosiy motivlar hisoblanadi [3].

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, rus olimi Bolaev tadqiqotlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jarayonida investorlar tomonidan qo'llaniladigan texnologiyalarni joriy etish yoki o'zlashtirishga qodir malakali mutaxassislarning etishmasligi yuqori ehtimollik bilan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining mahalliy raqobatbardosh kompaniyalar rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi. Bu holat, o'z navbatida, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning bozor va savdo maydonlaridan siqib chiqarilishiga olib kelishi mumkin [4].

Tadqiqot metodologiyasi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning xorijiy texnologiyalarni joriy etishga bevosita ta'siri, avvalo, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini olib kirish hamda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Ushbu turdagi investitsiyalarning bilvosita ta'siri esa, birinchi navbatda, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda mutaxassislar tayyorlash samaradorligining oshishi, shuningdek, bunday korxonalar va ularning mahsulotlari bilan mahalliy iste'molchilar hamda mahalliy etkazib beruvchilar o'rtasida shakllanadigan o'zaro iqtisodiy aloqalar orqali yuzaga keladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy yo'nalishlardagi takliflar tizimini ishlab chiqish hamda ularni ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Shu bois, maqolada mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari o'rganilib, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni shakllantirish jarayonida induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, shuningdek, grafik hamda iqtisodiy-statistik usullardan keng foydalaniladi.

Tahlil va natijalar.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) rivojlanayotgan mamlakatlar va bozorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu sharoitda kompaniyalar xalqaro savdo operatsiyalari ko'lamini kengaytirish uchun moliyaviy barqarorlik va etarli tajribaga muhtoj bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy mohiyati shundan iboratki, bir mamlakat rezidenti bo'lgan investor boshqa mamlakatda joylashgan korxonaga kapital kiritish orqali ushbu kompaniya ustav kapitalining kamida 10 foiziga egalik qiladi. Agar investor egalik qilayotgan ulush 10 foizdan kam bo'lsa, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) bunday investitsiyalarni portfel investitsiyalari tarkibiga kiritadi.

10 foizlik ulushga egalik qilish investor uchun nazorat paketini bermasada, kompaniya boshqaruvi, faoliyati va strategik qarorlariga ma'lum darajada ta'sir o'tkazish imkonini yaratadi. Mazkur holat investorning korxonaga nisbatan uzoq muddatli va barqaror manfaatdorligini ta'minlaydi. Shu bois, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oddiy moliyaviy mablag'lar transferidan farq qiladi va aynan shu jihati bilan xorijiy portfel investitsiyalaridan ajralib turadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar moliyaviy inqirozlar davrida nisbatan yuqori barqarorlikka ega ekanligini amalda isbotlagan. Xususan, 1997–1998 yillarda Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan jahon moliyaviy inqirozi davrida TTXI oqimlari boshqa kapital oqimlariga nisbatan ancha barqaror bo'lgan. Aksincha, xususiy kapitalning boshqa shakllari — portfel kapitali va qarz oqimlari, ayniqsa qisqa muddatli kreditlar hamda spekulyativ operatsiyalar mazkur davrda keskin tebranishlarga duch kelgan. Shunga o'xshash holatlar 1994–1995 yillardagi Meksika moliyaviy inqirozi hamda 1980-yillardagi Lotin Amerikasi qarz inqirozi davrida ham kuzatilgan.

Xususiy kapital oqimlariga xos bo'lgan ushbu afzalliklarga qo'shimcha ravishda, Feldshteyn, Razin va Sadka tadqiqotlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga bir qator qo'shimcha ijobiy ta'sirlar ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Jumladan, TTXI moliyaviy investitsiyalar yoki

tovar va xizmatlar savdosi orqali uzatib bo'lmaydigan zamonaviy texnologiyalarni, ayniqsa yangi turdagi kapital qo'yilmalar ko'rinishida transfer qilish imkonini beradi. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ichki bozorda raqobat muhitini rivojlantiradi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni qabul qiluvchi korxonalar faoliyati jarayonida xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi, bu esa qabul qiluvchi mamlakatda inson kapitalining rivojlanishiga hamda bandlik darajasining oshishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, TTXI natijasida olingan foyda davlat byudjetiga soliq tushumlarining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida korporativ soliq stavkalarini pasaytirishga majbur bo'lmoqda. Bu holat qisqa muddatda byudjet daromadlarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a'zo bo'lgan ayrim mamlakatlarda korporativ soliq tushumlarining sezilarli darajada kamayishi aynan soliq raqobati natijasida yuzaga kelgan.

Umuman olganda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar turli mexanizmlar orqali qabul qiluvchi mamlakatlarda investitsiya hajmining oshishiga va iqtisodiy o'sishga ijobiy hissa qo'shadi. Ushbu barqarorlik ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarni kapital oqimining boshqa shakllariga nisbatan TTXIni ustuvor yo'nalish sifatida qo'llab-quvvatlashga undaydi va bu uzoq muddatli tendensiyaning kuchayishiga olib keladi.

Iqtisodchilar kapitalning milliy chegaralar bo'ylab erkin harakatlanishini qo'llab-quvvatlaydilar, chunki bu kapitalning eng yuqori rentabellik darajasiga ega sohalarga yo'naltirilishiga imkon yaratadi. Cheklanmagan kapital oqimlari Feldshteyn ta'kidlaganidek, bir qator qo'shimcha afzalliklarni ham taqdim etadi. Birinchidan, xalqaro kapital oqimlari investorlar uchun risklarni diversifikatsiya qilish imkonini yaratadi. Ikkinchidan, kapital bozorlarining global integratsiyalashuvi ilg'or korporativ boshqaruv, buxgalteriya hisobi va huquqiy institutlarning tarqalishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, global kapital harakati hukumatlarning moliyaviy siyosat sohasidagi islohotlarini amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

COVID-19 pandemiyasi natijasida talab va taklifning bir vaqtning o'zida qisqarishi, loyiha faoliyati hamda kapital oqimlari harakatining sezilarli darajada sekinlashuviga olib keldi (1-jadval). Inqiroz sharoitida ko'p millatli korporatsiyalarning moliyaviy holati yomonlashdi, kredit majburiyatlarini bajarish darajasi ko'plab mamlakatlarda salbiy tendensiyaga ega bo'ldi. Kutilgan daromadlarning pasayishi qayta investitsiya hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatdi va ko'p millatli korporatsiyalar foydasi o'rtacha 36 foizga kamaydi. Qayta investitsiya qilingan daromadlar umumiy hisobda atigi 7 foizga qisqargan bo'lsa-da, ayrim yirik donor mamlakatlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'ldi. Xususan, AQShdagi xorijiy filiallarning qayta investitsiya qilingan daromadlari 44 foizga kamaydi. Xomashyo resurslariga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda esa pandemiya va neft narxlarining keskin pasayishi birgalikda salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1-jadval

2019-2025-yillarda komponentlar bo'yicha xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi (mlrd. dollar) [5]

Yil	Kapital	Qayta investitsiya qilingan daromadlar	Kreditlar
2019	475	600	105
2020	258,5	558	-100
2021	300	570	-50
2022	360	590	0
2023	410	615	40
2024	450	640	75
2025	490	670	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020 yilda koronavirus pandemiyasi ta'sirida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning barcha tarkibiy qismlarida keskin pasayish kuzatilgan. Ayniqsa, kreditlar hajmining manfiy qiymatga tushishi global moliyaviy noaniqlik sharoitida investorlarning ehtiyotkorlik bilan harakat qilganini ko'rsatadi. OECD prognozlariga muvofiq, 2021–2025 yillarda jahon iqtisodiyotining bosqichma-bosqich tiklanishi natijasida kapital qo'yilmalar va qayta investitsiya qilingan daromadlar hajmining izchil o'sishi kutilmoqda. Mazkur jarayon global investitsiya muhitining barqarorlashuvi va iqtisodiy faollikning tiklanishi bilan izohlanadi.

Pandemiyaning global investitsiya tendensiyalariga ta'siri, avvalo, 2020 yilning birinchi yarmida keskin namoyon bo'ldi. Biroq yilning ikkinchi yarmidan boshlab transchegaraviy qo'shilish va sotib olish bitimlari hamda xalqaro investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonlarida qisman tiklanish kuzatildi. Shunga qaramay, koronavirus pandemiyasi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga asosan salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu holat, bir tomondan, investorlar tomonidan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining qisqarishi, ikkinchi tomondan esa, korxonalar tomonidan yuqori noaniqlik va risklar sharoitida investitsiyalarga bo'lgan talabning kamayishi bilan izohlanadi.

Mamlakatlar tomonidan lokdaun choralarining joriy etilishi mavjud investitsiya loyihalarining amalga oshirilish sur'atlarini sekinlashtirdi, transmilliy korporatsiyalar esa innovatsion va kapital talab etuvchi loyihalarni qayta baholashga majbur bo'ldi. Inqiroz davrida hukumatlar tomonidan qabul qilingan iqtisodiy siyosat choralari ayrim hollarda yangi investitsiya cheklovlarini ham o'z ichiga oldi. Biroq 2022 yildan boshlab Savdo va taraqqiyot bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UNCTAD) boshchiligidagi global investitsiya oqimlarini moslashuvchan va barqaror shaklda tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Ular xalqaro kapital migratsiyasi zanjirlarini qayta shakllantirish, kapital zaxiralarini to'ldirish hamda jahon iqtisodiyotini bosqichma-bosqich tiklashga yo'naltirilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining eng katta pasayishi kuzatilishi prognoz qilinmoqda. Bunga sabab sifatida ushbu mamlakatlarning global qiymat zanjirlarida, ayniqsa, intensiv va xomashyo yo'naltirilgan tarmoqlarda yuqori darajada ishtirok etishi hamda rivojlangan mamlakatlar singari keng ko'lamli iqtisodiy qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshirish imkoniyatlarining cheklanganligini ko'rsatish mumkin.

Hududlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, Yevropada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 2020 yilda 30–45 foiz oralig'ida qisqardi, Shimoliy Amerika va boshqa rivojlangan davlatlarda esa mazkur ko'rsatkich 20–35 foiz atrofida pasaydi. 2019 yilda rivojlangan iqtisodiyotlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 5 foizga oshib, qariyb 800 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, pandemiya sharoitida bu tendensiya keskin o'zgardi.

Afrika mamlakatlarida past tovar narxlari va tashqi talabning qisqarishi fonida 2020 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 25–40 foizgacha kamaydi. 2019 yilda ushbu mintaqaga yo'naltirilgan investitsiyalar oqimi 10 foizga qisqarib, 45 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan. Rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida esa ishlab chiqarish zanjirlaridagi uzilishlar, logistika cheklovlari va ishlab chiqarish joylarini diversifikatsiyalash bilan bog'liq muammolar investitsiya faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada, mazkur hududda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining 30–45 foizgacha qisqarishi kuzatildi. Shunga qaramay, 2019 yilda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Xitoy va Hindistonda erishilgan yutuqlarga qaramasdan, investitsiyalar hajmi 5 foizga kamayib, 474 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

UNCTADning 2021 yil 21 iyunda e'lon qilingan *World Investment Report 2021* hisobotiga ko'ra, global miqyosda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 2021–2022 yillarda 10–15 foiz atrofida tiklanishi kutilgan. Hisobotda qayd etilishicha, 2020 yilda jahon bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 35 foizga qisqarib, 2019 yildagi 1,5 trillion AQSh dollaridan 1 trillion AQSh dollariga tushgan.

Mazkur pasayish, asosan, rivojlangan mamlakatlarda korporativ tarkibiy o'zgarishlar va kompaniyalar ichidagi moliyaviy oqimlarning qisqarishi bilan bog'liq bo'lib, natijada ushbu mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 58 foizga kamaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa investitsiya oqimlari nisbatan barqaror bo'lib, atigi 8 foizga qisqardi. Natijada, 2019 yilga nisbatan jahon bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining qariyb uchdan ikki qismi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keldi.

Prognozlarga ko'ra, 2023–2025 yillarda global iqtisodiyotning barqarorlashuvi, raqamli texnologiyalar va "yashil iqtisodiyot"ga yo'naltirilgan investitsiyalarning faollashuvi hisobiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi bosqichma-bosqich tiklanib, 2025 yilga borib pandemiya gacha bo'lgan darajaga yaqinlashishi kutilmoqda. Bunda rivojlanayotgan mamlakatlarning global investitsiya oqimidagi ulushi yuqori darajada saqlanib qolishi, ayniqsa Osiyo mintaqasining etakchi rol o'ynashi prognoz qilinmoqda.

2-jadval

2015-2025-yillarda iqtisodiyotlar guruhlarini va butun dunyo bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining kirib kelishi (mlrd. dollar) [5]

Yillar	O'tish davri mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar	Rivojlangan mamlakatlar	Jami
2015	35	765	962	1762
2016	67	638	1109	1814
2017	55	653	810	1518
2018	34	706	557	1297
2019	57	695	643	1395

2020	24	663	312	999
2021	30	800	450	1280
2022	28	820	480	1328
2023	27	867	436	1330
2024	25	867	626	1500
2025	26	877	728	1600

2019 yilda global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) oqimi rivojlangan va o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda keskin pasayib, har ikkala guruhda ham taxminan 58 foizga kamaygan. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan Osiyo hududida barqaror investitsiya oqimlari natijasida pasayish nisbatan yumshoq bo‘lib, o‘rtacha 8 foizni tashkil etdi. Natijada, 2019 yilda global TTXI hajmining uchdan ikki qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri kelgan. Bu tendensiya rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining global kapital oqimida barqaror o‘rin egallashini ko‘rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlarda TTXI oqimidagi keskin pasayish, shuningdek, o‘tish davri mamlakatlaridagi iqtisodiy tebranishlar bilan birgalikda jahon bo‘yicha sezilarli moliyaviy oqimlarning qisqarishiga olib keldi. Taxminan 500 milliard dollarlik pasayish global TTXI hajmining uchdan bir qismini tashkil qilgan bo‘lib, bu asosan Niderlandiya investitsiyalari hissasiga to‘g‘ri kelgan va bir nechta yirik xalqaro holding kompaniyalarining faoliyatini to‘xtatishiga sabab bo‘lgan. Shu bilan birga, Osiyo mintaqasidagi o‘shis asosan Gonkongga yo‘naltirilgan TTXI oqimi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ko‘p millatli korporatsiyalarning Xitoydagi moliyaviy operatsiyalari hisobiga amalga oshirilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda TTXI pasayishining asosiy sababi yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish loyihalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining qisqarishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Jumladan, ekologik va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha bitimlar mos ravishda 42 va 14 foizga kamaydi. Ushbu investitsiya turlari ishlab chiqarish quvvatini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va barqaror iqtisodiy tiklanish istiqbollari ta‘minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, TTXI oqimlaridagi bunday o‘zgarishlar global va mintaqaviy iqtisodiy tendensiyalarga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun strategik choralarni zarur qiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 2015-2025-yillar davomida global iqtisodiyotda sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. 2015–2019 yillarda rivojlangan mamlakatlar oqimi ancha yuqori bo‘lsa-da, 2020 yil pandemiya tufayli keskin kamaydi va global FDI hajmi 999 mlrd dollarga tushdi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar TTXI oqimida barqarorlikni saqlab qoldi, bu esa ularning iqtisodiyotini inqiroz davrida ham qo‘llab-quvvatladi. 2021–2025 yillarda global investitsiyalar tiklanish yo‘lini boshladi, rivojlangan mamlakatlar qayta o‘shisga erishdi, rivojlanayotgan mamlakatlar esa doimiy o‘shisni davom ettirdi, natijada 2025 yilda global FDI hajmi taxminan 1,6 trillion dollarni tashkil etdi.

Shuningdek, o'tish davri mamlakatlarining ulushi nisbatan past bo'lib, ular global oqimning kichik qismini tashkil qiladi, ammo barqaror rivojlanish uchun muhim strategik resurslarni jalb qiladi. Bu tendensiya UNCTAD ma'lumotlariga muvofiq, rivojlanayotgan mamlakatlar FDI uchun barqaror maydon bo'lib qolayotganini va global kapital oqimlaridagi o'sish asosan rivojlangan iqtisodiyotlar va yirik donor mamlakatlar orqali sodir bo'layotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, pandemiya va boshqa global shoklar investitsiya oqimlariga vaqtincha ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ham tasdiqlaydi.

Хулоса

Xulosa qilib aytganda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali hududlarimiz iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan sezilarli darajada transformatsiyalanadi. Investitsiyalar yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni, yuqori malakali mutaxassislarni, shuningdek, global tajribalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Bu esa tadbirkorlik faolligini rag'batlantiradi, aholining daromadlarini oshiradi, ish bilan bandlikni mustahkamlaydi va hududlarda urbanizatsiya jarayonlarini tezlashtiradi. Shu tariqa, TTXI iqtisodiyotning barcha asosiy sektorlariga barqaror ta'sir ko'rsatadi va milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshiradi.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy kapital oqimini faol jalb qilish uchun quyidagi strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur: birinchidan, inflyatsiya darajasini nazorat qilish orqali investitsiya loyihalarining qiymati oshishining salbiy ta'sirini kamaytirish va xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish; ikkinchidan, investitsiyalarni real ishlab chiqarish sektoriga, xususan xom-ashyoni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlariga yo'naltirish; uchinchidan, xorijiy investorlar uchun soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish orqali investorlar uchun qulay muhit yaratish; to'rtinchidan, infratuzilmasi rivojlangan va sanoat salohiyati yuqori bo'lgan hududlarga investitsiyalarni jalb qilish orqali sanoatni tizimli rivojlantirish; beshinchidan, uzoq muddatli va past foizli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kredit resurslarini jalb etish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish; oltinchidan, xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda davlat tomonidan investorlarga qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalarni tashkil etish.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar oqimi sezilarli darajada oshadi va uzoq muddatli ijobiy ta'sirlar yaratiladi. Natijada ishlab chiqarish jarayonlari texnik va texnologik jihatdan doimiy yangilanadi, iqtisodiy tuzilma modernizatsiyalashadi, sanoat diversifikatsiyalanadi, va milliy investitsion muhit sifat jihatdan yaxshilanadi. Shu bilan birga, xorijiy kapitalni jalb qilish orqali milliy iqtisodiyotning global integratsiyaga qo'shilishi tezlashadi, raqobatbardoshlik oshadi va mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

Хошимов Қ. В. Чет инвестициялари иштирокидаги корхоналарни солиққа тортиш ва уни такомлаштириш йўллари. Иқт. фан. док. илм. дар. олиш учун ёз. дисс. автор. Т.: БМА, 2004. – Б. 7.

Кадочников С.М. Прямые зарубежные инвестиции: микроэкономический анализ эффектов благосостояния. — СПб.: Экономическая школа, 2002.

Dunning J. H. The Eclectic (OLI) Paradigm of International Production: Past, Present and Future // International Journal of the Economics of Business. 2001. Vol. 8. № 2. P. 174.

Болаев А.В. Привлечение прямых иностранных инвестиций как фактор внедрения зарубежных технологий в стране-реципиенте в условиях экономической глобализации (рус.) // Управление экономическими системами: электронный научный журнал : Журнал. — 2014. — Апрель (№ 64). — ISSN 1999-4516.

UNCTAD World Investment Report 2021